



## ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR :DAVLAT ,HUQUQ VA ADOLAT TAFAKKURI TIMSOLI

*Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti 1-bosqich talabasi*

*Ibroximova Diyoraxon Mirzoxamdamovna*

**ANNOTATSIYA.** Mazkur maqola buyuk o'zbek mutafakkiri, davlat arbobi va mohir sarkarda Zahiriddin Muhammad Boburning davlat boshqaruvi tizimidagi o'ziga xos huquqiy va adolatli yondashuvlarini tahlil qilishga bag'ishlanadi. Maqolada Bobur shaxsi nafaqat lirik shoir, balki XV–XVI asrlar Sharq huquqiy tafakkurining yirik namoyandasi sifatida tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy manbasi sifatida "Boburnoma" asaridagi ma'muriy boshqaruv, kadrlar siyosati va harbiy intizomga oid qoidalar hamda "Mubayyin" asaridagi moliya-huquqiy normalar qiyosiy o'rganilgan. Maqolada Bobur tomonidan joriy etilgan "meritokratiya" ya'ni loyqlik tamoyilini zamonaviy davlat xizmati tizimi bilan bog'lagan holda, uning adolat tushunchasini yuridik kategoriya sifatida asoslab beradi. Shuningdek, maqolada Boburning davlat tizimidagi soliq islohotlari, fuqarolarning mulkiy huquqlari daxlsizligi va sud hokimiyatining jamiyat barqarorligidagi o'zni ilmiy jihatdan yoritiladi. Maqola yakunida Boburning huquqiy merosining bugungi Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasidagi "Inson qadri va adolat" tamoyillari bilan hamohang jihatlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Zahiriddin Muhammad Bobur, "Boburnoma", "Mubayyin", davlat boshqaruvi, ijtimoiy adolat, meritokratiya.

**KIRISH.** Insoniyat taraqqiyoti tarixida shunday siymolar borki, ularning faoliyati asrlar osha o'z dolzarbligini yo'qotmaydi, aksincha, yangi davr prizmasi orqali yanada teranroq ahamiyat kasb eta boshlaydi. Zahiriddin Muhammad Bobur ana shunday daholardan biridir. Tavalludining 543-yilligi munosabati bilan uning hayoti va ijodini o'rganish bizdan nafaqat adabiy tahlilni, balki chuqur siyosiy-huquqiy mushohadani ham talab etadi. Bobur shunchaki bir saltanat asoschisi emas, balki parokandalikka yuz tutgan hududlarda "Adolat va Qonun" ustuvorligiga



asoslangan yangi turdagi davlatchilik modelini yaratgan buyuk huquqshunos va islohotchidir. Boburning huquqiy tafakkuri shakllanishida uning bobosi Sohibqiron Amir Temurning "Kuch - adolatda" degan oliy tamoyili va "Temur tuzuklari"dagi davlat boshqaruvi qoidalari poydevor bo'lib xizmat qildi. Biroq, Bobur bu an'analarni saqlab qolgan holda, ularni o'z davrining murakkab siyosiy geosiyosatiga moslashtirdi va rivojlantirdi. Uning "Boburnoma" asari shunchaki sarguzashtlar xronikasi emas, balki davlatni qanday boshqarish, xalq bilan qanday muloqot qilish va hokimiyatni qanday qilib adolat tarozisida tutib turish haqidagi yuridik manifestdir. Bugungi kunda jahon huquqshunoslik fani "shaffoflik" va "xususiy mulk himoyasi" kabi tushunchalarni yangi innovatsiya sifatida talqin etayotgan bir paytda, Bobur bu prinsiplarni besh asr avval o'z davlatining konstitutsiyaviy asoslariga aylantirib ulgurgan edi. Uning "Mubayyin" asarida bayon etilgan moliya va soliq tartibotlari o'z davri uchun inqilobiy xarakterga ega bo'lib, unda davlat xazinasini va xalq manfaati o'rtasidagi oltin muvozanat aniq huquqiy normalar orqali belgilab berilgan. Ushbu maqolaning maqsadi - Zahiriddin Muhammad Boburni jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan huquqshunos olim va adolatli hukmdor sifatida namoyon etishdir. Biz Bobur merosini o'rganish orqali bugungi globallashuv davrida davlat boshqaruvining ma'naviy va huquqiy asoslarini mustahkamlash, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash va inson huquqlarini eng oliy qadriyat darajasiga ko'tarish yo'lidagi muhim xulosalarni shakllantiramiz. Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) O'rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'ziga xos o'rin egallagan adib, shoir, olim bo'lish bilan birga, yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo'lsa, serjilo o'zbek tilida yozilgan "Boburnoma" asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan mustahkam o'rin oldi. Uning nafis g'azal va ruboiylari turkiy she'riyatining eng nodir durdonalaridan bo'lib, "Mubayyin", «Xatgi Boburiy», "Harb ishi", Aruz haqidagi risolalari islom qonunshunosligi, she'riyat va til nazariyasi sohalariga munosib hissa bo'lib qo'shildi. Tarixiy ma'lumotlarda aytilishicha, Boburning



Hindistonga yurishida Dehli hukmdori Ibrohim Sulton siyosatidan norozi bo'lgan Panjob hokimlari ham Boburni qo'llaganlar va Sikri jangidagi bu g'alaba Boburga Hindistonda o'z hukmronligini uzil-kesil o'rnatish va Boburiylar sulolasini barpo etish imkoniyatini berdi. Boburiylar sulolasi Hindistonda 300-yildan ortiq vaqt hukmronlik qildi. Bobur bu g'alabadan keyin uzoq yashamadi 1530-yil dekabr oyida Agra shahrida vafot etdi va keyinroq uning vasiyatiga ko'ra farzandlari uning xokini Kobulga keltirib dafn etdilar. Boburning davlat ishlaridagi xizmati nimada edi degan savol tug'iladi shubhasiz. Avvalo, u Hindistonda siyosiy muhitni barqarorlashtirish, mamlakat yerlarini birlashtirish, shaharlarni obodonlashtirish, savdo sotiq masalalarini to'g'ri yo'lga qo'yish, bog'-rog'lar yaratish ishlariga shaxsan o'zi homiylik qildi. Hozirgacha mashhur bo'lgan me'moriy yodgorliklar, bog'lar, kutubxonalar, karvonsaroylar qurdirish, ayniqsa, uning o'g'illari va avlodlari davrida kengaydi deyish mumkin. Hindiston san'ati va me'morchiligiga Markaziy Osiyo uslubining kirib kelishi sezila boshladi. Bobur va uning hukmdor avlodlari huzurida o'sha davrning ilg'or va zehni o'tkir olimlari, shoirlari, musiqashunoslari va davlat arboblari mujassam etgan mukammal bir ma'naviy-ruhiy muhit vujudga kelgandi. Boburiylar davlatidagi madaniy muhitning Hindiston uchun ahamiyati haqida hind xalqining mashhur arbobi Javoharlar'l Neru shunday yozgan edi: "Bobur Hindistonga kelgandan keyin hayotga, san'atga, arxitekturaga toza havo baxsh etdi, madaniyatning boshqa sohalari esa bir-birlariga tutashib ketdi". Zahiriddin Muhammad Boburning jahonshumul asarlariga keladigan bo'lsak ulardan biri "Boburnoma"dir. Boburnoma faqatgina tarixiy voqealar bayoni emas, balki davlat boshqaruvining strategik asoslarini o'z ichiga olgan fundamental qo'llanma asardir. Zahiriddin Muhammad Boburning ushbu asarida davlat hokimiyatini boshqarishda yordam beradigan asosiy tushunchalar sanab o'tilgan. Misol uchun, **1. Kadrlar siyosati va meritokratiya:** Bobur hokimiyatni boshqarishda nasl-nasabdan ko'ra shaxsning qobiliyati, sadoqati va xizmatga loyqligiga alohida e'tibor qaratgan. U o'z asarida munosib kadrlarni tanlash va ularni rag'batlantirishni davlat barqarorligini kafolati deb biladi. **2. Harbiy intizom va huquq:** Bobur qo'shin ichida qat'iy tartib intizom o'rnatishda adolat tamoyiliga tayangan. U



"Boburnoma"da lashkarning oddiy xalqqa ozor bermasligi, ekinzorlarni payhon qilmasligi haqida qat'iy farmonlar chiqarganini bayon qiladi. Bu esa harbiy-huquqiy normalarning insonparvarlik g'oyalari bilan chambarchas bog'liqligidan dalolat beradi. Boburning yana bir mashhur asarlaridan biri bu - Mubayyindir. Ushbu asar moliya va soliq tizimining huquqiy asosi sifatida qo'llanilgan. Agar "Boburnoma" amaliy siyosat namunasi bo'lsa, "Mubayyin" asari esa Boburiylar davlatining iqtisodiy-huquqiy poydevorini belgilab bergan asardir. Masnaviy yo'lida yozilgan ushbu risola islom huquqshunosligining moliya sohasidagi qoidalarini aniq belgilab bergan. Misol uchun, **1. Soliq islohotlari:** Bobur ushbu asarida zakot, xiroj va boshqa soliq turlarining miqdorini, ularni yig'ish tartibini adolat tarozisiga soladi. Uning fikricha, soliq xalqni xonavayron qiladigan emas, balki davlatni rivojlantiradigan va ijtimoiy himoyani ta'minlaydigan vosita bo'lishi lozim. **2.Xususiy mulk daxlsizligi:** "Mubayyin"da fuqarolarning mulkiy huquqlari va meros masalalari huquqiy jihatdan tartibga solingan. Bu esa o'sha davrda tadbirkorlik va dehqonchilikning rivojlanishiga kuchli turtki bergan.Shuningdek, Boburiylar davlat boshqaruvida sud hokimiyati mustaqilligi va adolatliligi jamiyat barqarorligining ustuni hisoblangan. Bobur o'z xotiralarida qozilar va adliya mutasaddilarining xolisligiga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha hukmdor – qonun ustidan hukmron emas, balki qonun ijrosining birinchi kafolatidir. "Boburnoma"da keltirilgan ayrim sud jarayonlari tahlili shuni ko'rsatadiki, hatto yuqori tabaqa vakillari yoki harbiy amaldorlar ham oddiy fuqaroning haqiga tajovuz qilgan taqdirda, shariat va saltanat qonunlari asosida qat'iy jazolangan. Bu esa zamonaviy "qonun ustuvorligi" tamoyilining o'sha davrdagi amaliy ko'rinishidir. Zahiriddin Muhammad Boburning huquqiy qarashlari bugungi Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ilgari surilayotgan "Inson qadri uchun" tamoyili bilan g'oyaviy jihatdan hamohangdir. Bobur o'z asarlarida ta'kidlaganidek, davlatning qudrati uning qurolli kuchlarida emas, balki fuqarolarning roziligi va adolatli boshqaruvidadir. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlar, korrupsiyaga qarshi kurash va davlat xizmatiga munosib kadrlarni tanlash tizimi Bobur bobomiz orzu qilgan mukammal davlatchilik poydevorining



zamonaviy davomidir. Boburning huquqiy tafakkuri faqat ichki boshqaruv bilan cheklanib qolmay, xalqaro diplomatik munosabatlarda ham namoyon bo'ladi. U o'zining "Boburnoma" asarida elchilik odobi, davlatlararo bitimlarga sodiqlik va shartnomalarga rioya qilinishi shart tamoyiliga besh asr avval amal qilganini ko'ramiz. U hatto urush holatida ham diplomatik daxlsizlik va muzokaralar madaniyatini birinchi o'ringa qo'ygan. Bu esa bugungi O'zbekiston yuritayotgan ochiq va pragmatik tashqi siyosatning tarixiy ildizlari ekanligidan dalolat beradi. Bunga qo'shimcha qiladigan bo'lsak, Boburiylar davlat tizimida xususiy mulk daxlsizligi inson qadrining muhim kafolati sifatida ko'rilgan. Bu qoidalar bugungi Konstitutsiyamizda belgilangan "xususiy mulk daxlsizligi" va "tadbirkorlik faoliyati erkinligi" prinsiplari bilan to'liq hamohangdir. Shuningdek, uning soliq islohotlari "soliq – xalqni ezish vositasi emas, balki jamiyatni obod qilish manbai bo'lishi kerak" degan insonparvar g'oyaga asoslangan.

**XULOSA.** Zahiriddin Muhammad Boburning davlat boshqaruvi va huquqiy merosini kompleks tadqiq etish shuni ko'rsatadiki, u Markaziy Osiyo hamda Hindiston tarixida nafaqat buyuk saltanat bunyodkori, balki Sharq davlatchiligi tizimida "Adolatli boshqaruv" konsepsiyasini huquqiy normalar darajasiga ko'targan buyuk davlat arbobidir. Boburning huquqiy tafakkuri Sohibqiron Amir Temurning siyosiy an'analarini yangi bosqichga olib chiqdi va "Boburnoma" asarida bayon etilganidek, qonun ustuvorligi tamoyilini saltanatning bosh hujjati "ma'naviy konstitutsiyasi"ga aylantirdi. Uning qarashlarida hukmdor qonundan ustun turuvchi mutloq kuch emas, balki ijtimoiy adolatni ta'minlovchi va qonun ijrosiga mas'ul bo'lgan oliy kafil sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa zamonaviy demokratik tamoyillarning besh asr avvalgi mukammal tarixiy ko'rinishidir. Zahiriddin Muhammad Boburning huquqiy merosi shunchaki tarixiy xronika emas, balki bugungi globallashuv davrida milliy davlatchiligimizni mustahkamlash, shaffof boshqaruv tizimini yaratish va korrupsiyadan xoli jamiyat barpo etishda foydalaniladigan strategik manbadir. Bobur orzu qilgan "adolatli va qonun ustuvor jamiyat" g'oyasi bugungi Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining mazmun



mohiyati bilan uzviy bogʻlanib, kelajak avlodlar uchun ham davlatchilikning oliy mezoni boʻlib qolaveradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. **Zahriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” asari.**
2. **Zahriddin Muhammad Bobur “ Mubayyin” asari.**
3. **Hasanov S. “Boburning Mubayyin” asari Toshkent: Fan 1986**
4. **Ochilov L.” Zahriddin Boburning davlat boshqaruvi va huquqiy tafakkuri”.**